



## THE MEIJI CONSTITUTION AND THE STATE SYSTEM OF JAPAN

**Rustam Mamajonov**

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Tokugawa shogunate, Meiji era, feudal system, social stratification, Imperial Diet (国会), Meiji Constitution (明治憲法), Cabinet of Ministers (内閣)

**Received:** 02.10.24

**Accepted:** 04.10.24

**Published:** 06.10.24

**Abstract:** The Meiji Constitution, adopted in 1889, is one of the most important legal documents that laid the foundation for Japan's modern state system and brought it to the world political arena. This constitution allowed Japan to create a political system similar to that of Western countries, ending feudalism and strengthening national unity and centralization. This article analyzes the adoption of the Meiji Constitution, its influence on the state system, and its role in the formation of the political system in Japan.

## MEYDZI KONSTITUTSIYASI VA YAPONIYANING DAVLAT TUZUMI

**Rustam Mamajonov**

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Tokugava shogunati, Meydzi davri, feodal tuzum, ijtimoiy tabaqalashuv, Imperial Diet (国会), Meydzi Konstitutsiyasi (明治憲法), Vazirlar Mahkamasi (内閣)

**Annotatsiya:** 1889-yilda qabul qilingan Meydzi konstitutsiyasi Yaponiyaning zamonaviy davlat tuzumiga asos solgan va uni jahon siyosat maydoniga olib chiqqan eng muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Bu konstitutsiya feodal tartiblarni tugatib, milliy birlashuv va markazlashuvni kuchaytirgan holda, Yaponiyaga G'arb davlatlari bilan bir xil siyosiy tizim yaratish imkonini berdi. Ushbu maqolada Meydzi konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning davlat tuzumiga ta'siri va Yaponiyadagi siyosiy tizimni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

**КОНСТИТУЦИЯ МЭЙДЗИ И ГОСУДАРСТВЕННОЕ УСТРОЙСТВО ЯПОНИИ****Рустам Мамаджонов***Исследователь**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Сёгунат Токугава, эпоха Мэйдзи, феодальный строй, социальное расслоение, императорский сейм (国会), конституция Мэйдзи (明治憲法), кабинет министров (内閣)

**Аннотация:** Конституция Мэйдзи, принятая в 1889 году, является одним из важнейших правовых документов, заложивших основы современного государственного строя Японии и выведших его на мировую политическую арену. Эта конституция позволила Японии создать политическую систему, аналогичную системе западных стран, положив конец феодализму и укрепив национальное единство и централизацию. В данной статье анализируется принятие Конституции Мэйдзи, ее влияние на государственный строй и роль в формировании политической системы Японии.

**KIRISH**

1868-yilda imperator Meydzi Tokugava shogunatiga barham berib, o‘z hukmronligini tikladi. Bu davrda Yaponiya feodal bo‘linishlardan charchagan, zaif davlat tuzumi bilan yashar edi. Shogunlik davridagi markazsiz tizim va ijtimoiy tabaqalashuv mamlakatni tashqi xavflardan himoyalay olmasdi. Shu sababli, yangi hukumatning asosiy vazifasi markazlashgan va mustahkam davlat tuzumi yaratish edi. Meydzi hukumatining G‘arb davlatlari bilan raqobatlashish va zamonaviy davlat tuzishni maqsad qilgan islohotlari ichida konstitutsiyaviy tuzum yaratish muhim qadam bo‘ldi.

**ASOSIY QISM**

Meydzi konstitutsiyasini yaratishga kirishishdan oldin, Yaponiya hukumati 1876-yilda har bir mamlakatning Konstitutsiyasini o‘rganish uchun Konstitutsiya tadqiq qilish boshqarmasini tuzdi.

Yevropadagi, ayniqsa, Germaniyadagi davlat tuzumini o‘rganib chiqishdi. Yaponiyaga mos va milliy xususiyatlarga ega konstitutsiya yaratish maqsad qilingan bo‘lsa-da, Germaniya imperatorlik tizimidan ilhom olindi. 1882-yilda Ito Hirobumi boshchiligidagi delegatsiya Prussiyaga tashrif buyurib, Prussiya Konstitutsiyasini o‘rganishni boshladi. Ito Hirobumi Berlin Universitetining huquqshunosi Rudolf fon Gneist va Vena Universitetining huquqshunosi Lorenz von Stein bilan uchrashib, ulardan Prussiya Konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgandi.

Bu ikki olimdan Konstitutsiya har bir millatning tarixi, madaniyati va urf-odatlariga asoslanishi lozim shuning uchun avvalo o'z mamlakatingni tarixini o'rganish kerak degan maslahat oldi. 1883-yilda Ito Hirobumi Yaponiyaga qaytib Konstitutsiya qabul qilish va Parlament tashkil etish uchun kerakli chora-tadbirlarni ko'rdi. 1885-yilda Vazirlar Mahkamasi tizimi joriy etildi va Ito Hirobumi dastlabki bosh vazir bo'ldi. 1887-yilda Konstitutsiyaning dastlabki matni e'lon qilindi va 1888-yilga kelib Konstitutsiyaning to'liq matni tayyor bo'ldi.

1889-yil 11-fevralda Meydzi konstitutsiyasi rasman qabul qilindi va 1890-yil 29-noyabrda kuchga kirdi. Konstitutsiya 7bob, 76moddadan iborat bo'ldi.

1bob. Imperator haqida.

2bob. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqida

3bob. Imperatorlik parlamenti haqida.

4bob. Davrlar vazirliklari va maxfiy kengash haqida.

5bob. Sud tizimi haqida

6bob. Moliya haqida

7bob. Qo'shimcha qarorlar

Ushbu hujjat bo'yicha Yaponiya konstitutsiyaviy monarxiyaga aylandi, ya'ni imperator davlat boshlig'i bo'lib qoldi va imperatorlik oilasidan o'g'il bolaga meros bo'lib o'tishi belgilab qo'yildi.

Meydzi konstitutsiyasi bo'yicha imperator davlatning oliy rahbari sifatida qoldi. U armiya va dengiz kuchlarini boshqarish, parlamentni chaqirish va tarqatish, qonunlar chiqarish huquqiga ega edi. Biroq, imperator o'z vakolatlarini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirmas, balki hukumat vazirlarining maslahati va tavsiyalari asosida harakat qilardi. Shunday qilib, Yaponiyaning davlat boshqaruvi ikki darajali tizimga aylandi: imperator boshqaruvi va hukumatning siyosiy organlari o'rtasida muvozanat yaratildi.

Meydzi konstitutsiyasi bo'yicha qonun chiqaruvchi organ sifatida ikki palatali parlament — Kokkai yoki Teikoku gikai tashkil etildi. Bu parlament yuqori palata — zodagonlar va imperator tomonidan tayinlangan amaldorlardan (ko'proq umrbod muddatga tayinlangan), pastki palata esa xalq tomonidan (4yilga) saylangan vakillardan iborat edi. Pastki palataning vakillari bevosita saylovlar orqali saylanar edi, lekin saylov huquqi dastlab boylikka bog'liq edi va faqat erkaklarga berilgan edi. Shu bilan birga, parlamentning vakolatlari cheklangan bo'lib, ko'pgina masalalarda imperator va hukumatning roli ustun edi.

Meydzi konstitutsiyasi Yaponiya hukumatida ijro hokimiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Ijro hokimiyati imperator tomonidan tayinlanadigan bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli edi. Hukumat vazirlari imperatorga hisobdor edi va parlament oldida faqat ma'lum masalalarda javobgarlikni hisoblardi. Bu esa ijro hokimiyatini parlamentdan mustaqil holatda ushlab turdi.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi hukumatning kuchini markazlashishga va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan edi.

Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari ham belgilangan bo'lsa-da, ular cheklangan shaklda edi. Fuqarolarga shaxsiy erkinlik, mulk huquqi va sud oldida tenglik kabi huquqlar berilgan edi. Ammo hukumat xavfsizlikni ta'minlash yoki davlat manfaatlarini himoya qilish zaruratini bahona qilib, bu huquqlarni cheklash imkoniyatiga ega edi. Bunday holat hech qachon amalga oshmagan bo'lsa ham Yaponiyaning fuqarolik erkinliklari G'arbiy davlatlarnikidan ancha tor bo'lgan.

Meydzi davri Konstitutsiyasining 57-61moddalarida sud hokimiyati haqida bo'lib, sud hokimiyati imperatordan sudlarga topshirilgan va bu sud hokimiyatining mustaqilligini bildirgan. Bundan tashqari Kontinental Yevropa uslubidagi sud tizimi qabul qilinib, ma'muriy sud ishlari bo'yicha yurisdiksiya adliya sudlari emas, balki ma'muriy sudlar yurisdiksiyasiga kirdi. Ito Xirobumining fikriga ko'ra ijro etuvchi hokimiyat ham sud hokimiyatidan mustaqil bo'lishi kerak edi.

Konstitutsiyaning 6bobi moliya tizimi haqida bo'lib, unga soliq, budjet va davlat qarzlari tegishli bo'lgan moddalar kiritildi. Konstitutsiyaga muvofiq yangi soliqlar joriy etish uchun Parlamentning roziligi kerakligi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari davlatning foyda va xarajatlarini belgilash uchun parlamentga budjet taqdim etilib, parlamentning roziligini olish majburiy qilib qo'yildi. Hukumat budjet defitsiti va kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira fondini yaratdi. Bu fondan foydalanish uchun parlamentning roziligi kerak edi.

Konstitutsiyaning 7bobida qo'shimcha qarorlar haqida moddalar mavjud bo'lib, Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif faqat imperator tomonidan kiritilsa ham lekin parlamentning roziligini olish majburiy etib belgilab qo'yildi.

Konstitutsiya qabul qilinganidan bir yil o'tib, Ta'lim haqida imperator farmoni e'lon qilindi. Bu rasmiy qonun hisoblanmasa ham lekin maqom jihatdan juda ham farmoyish hisoblanar edi. Aynan mana shu farmon mamlakatda ziyolilar qatlamini shakllantirish uchun muhim qadam bo'ldi.

## XULOSA

Meydzi konstitutsiyasi nafaqat Yaponiyaning ichki siyosiy tizimini barqarorlashtirishga xizmat qildi, balki uning xalqaro maydonda yangi davlat sifatida tan olinishi uchun ham muhim qadam bo'ldi. Yaponiya konstitutsiyaviy monarxiyaga aylangani bilan, G'arb davlatlari unga nisbatan yangi munosabatda bo'lishni boshladilar. Bu esa Yaponiya uchun yangi diplomatik imkoniyatlar yaratdi va uni xalqaro siyosiy hamjamiyatda teng huquqli davlat sifatida ko'rishga yordam berdi.

Meydzi konstitutsiyasi va u orqali yaratilgan davlat tuzumi Yaponiya tarixida muhim burilish nuqtasini tashkil etdi. Bu hujjat yordamida Yaponiya zaif feodal davlatdan kuchli markazlashgan davlatga aylandi. Imperatorlik hokimiyati saqlanib qolgani bilan, konstitutsiya hukumatni barqaror va zamonaviy boshqaruv tizimi bilan ta'minladi. Shu tariqa, Meydzi konstitutsiyasi Yaponiyani xalqaro miqyosda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga asos yaratdi va davlat tuzumini zamonaviylashtirish yo'lida katta qadam bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hirai, A. (1987). The State and Ideology in Meiji Japan—A Review Article. *The Journal of Asian Studies*, 46(1), 89-103.
2. Irokawa, D. (1985). *The culture of the Meiji period*. Princeton University Press.
3. Hirschmeier, J. (1964). *The origins of entrepreneurship in Meiji Japan*. Harvard University Press.
4. Jansen, M. B. (Ed.). (1995). *The Emergence of Meiji Japan*. Cambridge University Press.
5. Shively, D. H. (1971). The Japanization of the middle Meiji. *Tradition and modernization in Japanese culture*, 77-119.
6. Nagai, M. (1971). Westernization and Japanization: the early Meiji transformation of education. *Tradition and modernization in Japanese culture*, 35-76.
7. Dickinson, F. R. (2018). Japan and the Modern World: Lessons from Meiji. *Japan Review*, 2(2), 45-52.
8. 憲法条文・重要文書 | 日本国憲法の誕生. 2023 年
9. 瀧井一博. “グローバル・コンテクストのなかの明治憲法”. 国際日本文化研究センター. p. 158. 2023 年